

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
Z.V.Alimova Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so‘zi va uning morfologik belgilari xususida	208
M.M.Asranova O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta‘minlovchi leksik va morfologik vositalar	213
O.M.Khudoyberdieva The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology	218
G.S.Xolmurotova Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva Alisher Navoiyning “Nasoyim Ul-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili	226
N.A.Abdullayeva Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili	229
M.T.Qodirova Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
D.N.Satimova Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar	240
V.A.Tangriyev Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar	247
V.A.Giyosova Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi	254
R.Kahramanova The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
I.M.Ataboyev Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish	264
M.E.Qodirova O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi	270



UO‘K:81.373.45

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING EKZISTENSIAL VA NOEKZISTENSIAL SHAKLLARI:
SUBSTANDART LEKSIK BIRLIKLAR****EXISTENTIAL AND NON-EXISTENTIAL FORMS OF ENGLISH AND UZBEK
LANGUAGES: SUB-STANDARD LEXICAL UNITS****ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЕ И НЕЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЕ ФОРМЫ АНГЛИЙСКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ: СУБСТАНДАРТНЫЕ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ****Satimova Dilafroz Numonjonovna** Qo‘qon universiteti, Jahon tillari kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc)**Annotatsiya**

Maqolaning asosiy maqsadi bir-biriga qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarining leksik qatlamlari, ularning tarkibi, shuningdek, tilning ekzistensial va noekzistensial shakllarini o‘rganishdan iborat. Bu borada, ga‘rb va sharq tilshunolarining mazkur masalaga oid nazariy va ilmiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida qiyosiy-chog‘ishtirma (ingliz va o‘zbek tillari kesimida), demonstrativ tahlil (rasm orqali), distributiv tahlil (muayyan lisoniy birliklarning nutqda ifodalanishi yordamida), tipologik (klassifikatsion/tasnifiy) yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Ishimizning natijasi orqali substandart leksik birliklarning yondosh tushunchalari – koine, pidjin, kreol tili, lingva-franka va sabir kabilar bilan ajratish mezonlari, lingvistik xususiyatlari hamda ularning ta‘rifi misollar orqali dalillanadi: Xulosa o‘rnida quyidagilarga erishdik: 1) Standart va substandart leksikaning alohida ta‘rifi va izohi berildi; 2) substandart atamalarga yondosh tushunchalar bilan ajratish mezonlari, shuningdek, tilning ekzistensial hamda noekzistensial shakllari ochib berildi; 3) turli tillarning leksik qatlamlari differentsiatsiyasi hamda ularning tarkibi izohlandi; 4) o‘zbek tili leksik qatlami shakllantirildi.

Аннотация

Основная цель статьи-изучение лексических пластов английского и узбекского языков, не родственных друг другу, их состава, а также экзистенциальных и неэкзистенциальных форм языка. В этой связи анализируются теоретические и научные подходы западных и восточных лингвистов к данному вопросу. В нашей исследовательской работе использованы методы сравнительно-сравнительного (на стыке английского и узбекского языков), демонстративного анализа (через рисунок), дистрибутивного анализа (с помощью речевого выражения определенных языковых единиц), типологического (классификационного/классификационного) подходов. Результатом нашей работы явились критерии, лингвистические особенности выделения с помощью подходящих понятий субстандартных лексических единиц – койне, пиджина, креольского языка, лингва-франка и Сабир, а также их определение на примерах: Вместо вывода мы пришли к следующему: 1) дано отдельное определение и толкование стандартной и субстандартной лексики; 2) проведено разделение с помощью подходящих понятий на субстандартные термины экзистенциальные и неэкзистенциальные формы языка; 3) объяснена дифференциация лексических слоев разных языков, а также их состав; 4) формируется лексический пласт узбекского языка.

Abstract

The main objective of the article is to study the lexical layers of English and Uzbek, which are not linguistically related, their composition, as well as the existential and non-existential forms of the language. In this regard, the theoretical and scientific approaches of Western and Eastern linguists to the subject are analyzed. In our research, we used comparative-contrastive methods (within the framework of English and Uzbek), demonstrative analysis (using illustrations), distributive analysis (based on the expression of certain linguistic units in speech), and typological (classification) approaches. As a result of our work, we provided criteria for distinguishing substandard lexical units from related concepts such as koine, pidgin, creole, lingua franca and sabir, highlighting their linguistic characteristics and definitions, supported by examples. In conclusion, we achieved the following: 1) A distinct definition and explanation of standard and substandard lexicon were provided; 2) the criteria for distinguishing substandard terms from related concepts, as well as the existential and non-existential forms of language were clarified; 3) the differentiation of lexical layers of various languages and their composition were explained; 4) the lexical layer of the Uzbek language was developed.

Kalit so‘zlar: ekzistensial va noekzistensial shakllar, koine, pidjin, kreol tili, lingva-franka, sabir, kodifikatsiya, professionalism, anglisizm, leksik qatlam.

TILSHUNOSLIK

Ключевые слова: экзистенциальные и неэкзистенциальные формы, койне, пиджин, креольский язык, лингва-франка, сабир, кодификация, профессионализм, англицизм, лексический слой.

Key words: existential and non-existential forms, koine, pidgin, creole language, lingua franca, sabir, codification, professionalism, anglicism, lexical layer.

KIRISH

Til va jamiyatning rivojlanishi faqatgina standart leksika bilan chegaralanib qolmaydi, unda nostandart lugʻatning yangi birliklari yuzaga kelishi ham kuzatiladi. Nutqiy faoliyatning aksariyati qismi standart boʻlmagan leksika yordamida amalga oshiriladi. Ushbu soʻz va iboralarni bilish esa tilni biluvchilarning erkin muloqotga kirishishi, zamonaviy adabiyot va ommaviy axborot vositalarini chuqur tushunishi, korporativ ogʻzaki nutq leksikasini anglashlari, ijtimoiy cheklangan guruhlar, jumladan, jinoyat olami soʻzlashuvini ilgʻab olishlari hamda jinoyatlarning oldini olish kabi holatlar uchun zarurdir.

Maʼlumki, tilshunoslar tilning leksik qatlamini bir necha darajaga boʻlishadi hamda turlicha atamalar bilan yondashadi. J.Kenyon ham tilda ikkita asosiy darajani belgilaydi: standart va substandart (standard-substandard). U, shuningdek, tildagi funksional xilma-xilliklarni ajratadi: rasmiy (formal) va norasmiy (informal) [5, 218]. Yu.Hanners yuqori va pastki uslublar haqida gapiradi, ular rasmiy va norasmiy uslublarga mos keladi [3, 137]. V.N.Yartseva esa uslubiy masalalar kitobiy va ogʻzaki nutq turlari bilan uzviy bogʻliqligini taʼkidlaydi [17, 195]. G.V.Stepanov tilni qatlamli tizim sifatida koʻrib chiqadi, yuqori qatlam (высший страт) - past qatlam (низший страт), bu esa madaniy daraja - madaniyatsiz darajaga toʻgʻri keladi [14, 128]. Ushbu bir necha xil terminlardan koʻra eng qulay va jarangdori – standart va substandart terminlari boʻlib, gʻarb tilshunoslari tomonidan koʻproq foydalanilganini bilishimiz mumkin.

Substandart til elementlari, submadaniyat qadriyatlarining indikatorlari sifatida, doimo kitobiy-yozma til meʼyorlariga koʻtarilish imkoniyatiga ega. Zamonaviy sharoitlarda, ayniqsa slavyan tillarda, bu jarayon shu qadar kuchli va tez amalga oshyaptiki, bu koʻplab “tilning yoʻqolishi haqidagi xavotirlar” uchun asos boʻlmoqda [8, 23]. Bu jarayon, substandart tilning ayrim unsurlari adabiy tilga integratsiya qilinishi orqali, tilning leksik boyligini va ifoda imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq, ushbu oʻzgarishlar tilshunoslar va madaniyatshunoslar orasida bahs-munozaralarga sabab boʻlmoqda, chunki bunday transformatsiya natijasida tilning oʻziga xosligi va anʼanaviy shakllari yoʻqolishi tayin.

Balki, bunday havotirlar ham oʻrinlidir, lekin ogʻzaki nutqda substandart leksikani cheklash deyarli imkonsiz. Sababi, jadallashib ketayotgan ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlar buni murakkablashtiradi. Substandart leksika, jumladan sleng, jargon, argo va boshqa norasmiy ijtimoiy-ogʻzaki iborala, kundalik hayotda juda faol qoʻllaniladi hamda bu tilni ifodalashning tabiiy qismiga aylanib boʻlgan. Tez surʼatlarda rivojlanayotgan ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlar va innovatsiyalar, xususan, internet va raqamli media vositalari substandart leksikaning keng tarqalishiga sabab boʻlmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda sotsiolekt va substandart qatlamlarning tadqiq etilishi koʻplab olimlar tomonidan muhim mavzu sifatida oʻrganib kelingan. Bir qator ilmiy tadqiqot obyektlarida ushbu til birliklarining sotsiolingvistik, lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatlari turli nuqtayi nazardan koʻrib chiqilgan. Ingliz va rus tilshunosligida standart va substandart masalalariga oid asarlar Yevropa tilshunosligining yetakchi vakillari tomonidan yaratilgan boʻlib, shulardan eng muhimlari qatoriga W.Labov [9], E.Patridge [11], L.Soudek [13], R.Z.Ginzburg va S.S.Xidekel [2], U. Hannerz [3], T.Harlitska [4], J.S.Kenyon [5], V.B.Bikov [1], V.P.Korovushkin [6], T.A.Kudinova [8], T.S.Novikova [10], S.S.Trifanova [15], V.N.Yartseva [17] va h.klar tomonidan ilmiy asarlar yaratilgan. Bu olimlarning ilmiy ishlari tilshunoslikda standart va substandart leksikaning asosiy nazariyalari yoritilib, til qatlamlari va ularning funksiyalarini keng koʻlamda tadqiq etishga bagʻishlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maʼlumki, til normasi asosan ikki darajaga, “standart” (standard) va “substandart” (substandard) ga boʻlinsa, uning ikkinchi darajasi, yaʼni substandart nihoyatda katta leksikani oʻziga qamrab oladi. Natijada, u quyidagi toʻrtta turli tushunchalarni oʻz ichiga olishini V.P.Korovushkin qayd etadi: 1) adabiy boʻlmagan (внелитературное), mahalliy hududiy (локально-

территориальное), 3) etnik (этническое) va 4) sodda so'zlashuv leksikasi (лексическое просторечие) [7, 55].

1) *Adabiy bo'lmagan sodda so'zlashuv tili* – bu tilning mavjud bo'lmagan shakli bo'lib, u adabiy normaning birinchi darajasidan fonetik va grammatik xususiyatlar bilan ifodalanadi, shuningdek, savodsiz yoki savodi kam kishilarning interdialektlariga xosdir.

2) *Mahalliy-hududiy sodda so'zlashuv tili* milliy til variantining mustaqil mavjud bo'lgan shallarini o'z ichiga oladi, ular hududiy va mintaqaviy dialektlar bilan ifodalanadi, shuningdek, mahalliy yarim-dialektlar hamda shahar nutq shakllarini o'z ichiga olgan yarim mustaqil mavjud bo'lgan shakllardan iborat.

3) *Etnik sodda so'zlashuv tili* – bu mustaqil ijtimoiylashgan etnik dialektlar hamda ijtimoiylashmagan yarim mustaqil dialektlar va shahar nutqlaridir.

4) *Leksik sodda so'zlashuv tili* – bu milliy tilning tarixiy jihatdan shakllangan ierarxik tuzilgan kichik leksik tizimi bo'lib, u stilistik jihatdan past va ijtimoiy belgilar bilan belgilangan leksik elementlarni o'z ichiga oladi [7, 56].

Leksik sodda so'zlashuv tili ham o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: 1) ekspressiv sodda so'zlashuv tili; 2) ijtimoiy-professional sodda so'zlashuv tili.

R.Z. Ginzburg va S.S. Xideklarning so'zlashuv leksikasi tasnifi esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Umumiy ishlatiladigan so'zlashuv leksikasi: keng jamoatchilik tomonidan tushuniladigan va kundalik hayotda qo'llaniladigan so'zlar;

2. Sleng: adabiy til me'yorlaridan tashqarida bo'lgan so'zlar, masalan, *governer 'ota', missus 'xotin', a gag 'hazil', dotty 'ahmoq'*. Sleng ko'pincha yoshlar va subkultural guruhlar orasida mashhurdir;

3. Professionalizmlar: muayyan kasb sohasidagi mutaxassislar tomonidan ishlatiladigan maxsus atamalar. Masalan, shifokorlar orasida *lab 'laboratoriya', hypo 'shprints', a buster 'bomba'* kabi so'zlar keng tarqalgan;

4. Jargonizmlar: ma'lum bir ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan va yashirin yoki maxfiy ma'noga ega so'zlardir. Masalan, jinoyatchilar orasida *a sucker 'oson aldanuvchi odam', a squiffer 'kontsertina'* kabi so'zlar ishlatiladi;

5. Vulgarizmlar: jamiyatda qo'pol va nojo'ya hisoblangan so'zlar, masalan, *bloody, hell, damn, shut up*. Bunday so'zlar odatda rasmiy nutqda ishlatilmaydi va xushmuomalik doirasidan tashqarida bo'ladi.

6. Dialektizmlar: muayyan hududga xos bo'lgan so'zlar. Masalan, Shotlandiya *lass 'qiz', kirk 'cherkov'* kabi so'zlar qo'llaniladi.

7. So'zlashuv neologizmlari: yangi yaratilgan so'zlar. Masalan, *newspaperdom (gazetalar dunyosi), allrightnik (barchasi joyida odam) kabi so'zlar* [2,24].

T.S.Novikova "substandart" deganda tildan foydalanishning quyidagi shakllarini tavsiflaydi: dialektlar, sodda so'zlashuv tili (просторечие), jargonlar (guruhli va korporativ) va argolar [10,7]. Shuningdek, tadqiqotchi quyidagicha yozadi: "Standart va substandart turlari bir nechta omillarni hisobga olgan holda ajratiladi, ulardan muhimlaridan biri" *kodifikatsiya* darajasidir. Og'zaki va yozma standartlar kodifikatsiya belgilari bilan birlashtirilgan (kamida morfologiya va aksentologiya sohalarida). Substandart subsistemalar esa umumiy fikrga ko'ra, bu belgi bilan belgilangan emas. Shunday qilib, standart va substandart milliy tilning me'yorlangan subsistemalarini ifodalaydi, ular me'yor xarakteri bilan ajralib turadi: standartda kodifikatsiyalangan me'yorlar ustun bo'lsa, substandartda kodifikatsiyalanmagan, oddiy me'yorlar ustunlik qiladi" [10, 12]. Til kodifikatsiyasi – bu tilning barcha (fonetik, grammatik, leksik) qoidalariga moslashtirilgan va til normlari asosida shakllantirilgan, xususan, yozma (ba'zi hollarda og'zaki) manbalarda qayd qilingan so'z va so'z birikmalarining yig'indisidir.

S.S.Trifanovanning yondashuvi ham til birliklarini ikki darajasini tasdiqlaydi va aniq ta'riflar bilan tahlilga tortadi: 1) "SKS (Sotsial-kommunikativ sistema)ni tashkil etuvchi vositalar mavjud bo'lib, birinchi (standart) va ikkinchi (substandart) darajasidagi normalar orqali shakllanadi; 2) Tilning ekzistensial shakli – bu turli darjadagi til birliklarining tartibli majmuasi hisoblanib, ular har hil kommunikativ avtonomlik ko'rsatkichlariga, o'ziga xos normalar tizimiga, funksiyalarga va xizmat ko'rsatiladigan jamoaga ega. Tilning mavjudligi ikki shaklda bo'ladi: ekzistensial va noekzistensial;

TILSHUNOSLIK

3) Ekzistensial til shakllarini o'rganish uchun asosiy bo'lganlar – milliy, davlat va adabiy til, ko'p millatli tilning milliy variant, sublisoniy, sotsiolekt, leksik substandart, pidjin va koyne bo'lib, ular umumxalq tilini tashkil qiladi; 4) Leksik substandart tahlilining asosiy kategoriyasi sifatida – bu tarixiy shakllangan, nisbatan barqaror, yarim ochiq tizimga ega, adabiy standartga qarama-qarshi qo'yilgan, milliy til variantining ierarxik jihatdan tuzilgan turi bo'lib, ikkinchi darajali sotsiolingvistik norma talablariga javob beradi va qisman (no)ekzistensial til shakllarini o'z ichiga oladi; 5) Leksik substandartning tuzilishi umumxalq leksik substandarti, ya'ni quyi darajadagi kollokvializmlar, umumiy slengizimlar va vulgarijmlardan tashkil topgan, hamda kasbiy-korporativ jargonlar, argo (kent) va marginal submadaniy leksikani birlashtiruvchi maxsus leksik substandartni o'z ichiga oladi [15, 10].

Ingliz tiliga aloqador bo'lgan asosiy aralash ekzistensial shakllar qatoriga *koyne*, *pidjin*, *kreol tili*, *lingva-franka* va *sabir* kiradi. Rus tilida esa aralash ekzistensial shakllar sifatida *koyne* va *pidjin*, shuningdek, *surjik* va *trasyanka* kabi o'ziga xos shakllar mavjud [6,37].

Koyne tarixan geolektlar, sotsiolektlar, etnolektlar va ba'zan aloqa qiluvchi tillarning aralashmasi asosida shakllangan, nisbatan barqaror va avtonom bo'lgan ekzistensial og'zaki intershakil sifatida aniqlanadi. Mazkur til o'ziga xos struktural tashkil etilgan tizimga, sotsiolingvistik normalarning birinchi va ikkinchi darajalarining o'ziga xos kombinatsiyasiga hamda turli xil kommunikativ funksiyalarga ega bo'lib, ijtimoiy guruhlararo muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Koyne tillari turli geografik va ijtimoiy mintaqalarda tarqalgan bo'lib, ular turli xil til va lahjalarni birlashtirish orqali yangi til shakllari yaratadi. Masalan, ko'plab xalqlar va elatlar o'rtasida muloqotni osonlashtirish uchun qo'llaniladigan *lingva-franka* ham shunday tillardan biridir. Bu tilda gaplashuvchilar, ko'pincha turli til oilalariga mansub bo'lib, bu koyne tilining xilma-xil leksik va grammatik tizimiga ega bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, koyne tillari, odatda, rasmiy va adabiy tillar sifatida qabul qilinmagan, balki norasmiy muloqot vositasi sifatida xizmat qilgan. Buning yorqin misoli sifatida, pidjin va kreol tillarini keltirish mumkin, ular bir necha tillarning aralashuvi natijasida vujudga kelgan hamda muayyan mintaqalarda asosiy muloqot vositasi sifatida foydalanilgan.

Pidjin – bu savdo-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalar natijasida ijtimoiy-tarixiy shakllangan, avvaliga metropol (Britaniya) va mahalliy (aborigen) tillar, keyinroq turli hind-yevropa va hind-yevropa bo'lmagan jamiyat va uning tillari o'rtasidagi aloqa natijasida yuzaga kelgan, o'zining asl til tarixiga hamda o'zining asl so'zlovchilariga ega bo'lmagan, tizimli tuzilgan avtonom ekzistensial gibrid til shaklidir [6, 38]. *Pidjin* asosan og'zaki bo'lib, ayrim hollarda yozma ravishda ham qo'llanilishi mumkin, genetik jihatdan ko'proq hukmron til-manba bilan, avvaliga hukmron bo'lgan, keyinroq esa kommunikativ manba sifatida xizmat qiladigan til-leksifikatori bilan, shuningdek, ayrim hollarda past darajada substrat til bilan, va nihoyat, avvaliga bo'ysinuvchi, keyin esa kommunikativ manba sifatida xizmat qiladigan til-modifikatorlari bilan bog'liq.


Kreol tili pidjindan rivojlanib, uning asosida shakllangan va undan farqli o'laroq, ma'lum bir til jamoati uchun ona tili bo'lgan avtonom ekzistensial til shakli hisoblanadi. Bu til milliy yoki davlat tili sifatida ijtimoiy, lingvistik va funksional-kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lib, kreolizatsiya jarayonida shakllangan [17, 256].

Lingva-franka – bu turli tillarda so'zlashuvchi kishilar o'rtasida cheklangan ijtimoiy-kommunikativ sohalarda muloqot qilish uchun ishlatiladigan funksional til shakllaridan biridir. Dastlab, bu til o'rta asrlarda O'rta yer dengizi mintaqasida savdo-sotiq aloqalarini osonlashtirish uchun fransuz, provonsal va italyan leksikasi asosida aralash til sifatida shakllangan. Salib yurishlari davrida ushbu til ispan, yunon, arab, turk va boshqa tillardan o'zlashmalar bilan boyigan va "sabir" (lotincha *sapere* – *tushunmoq*) nomi bilan mashhur bo'lgan. XIX asrgacha bu til faol ishlatilgan [17, 268]. *Lingva-franka* zamonaviy dunyoda ham bir necha tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida kommunikatsiyani ta'minlashda ahamiyatli bo'lib, masalan, ingliz tili bugungi kunda global *lingva-franka* sifatida ko'riladi.

V.B.Bikov o'zining rus tili substandartlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasida substandartlarning asosiy yettita turlari sifatida "yoshlar jargoni", "umumiy jargon", "sodda so'zlashuv tili (просторечие)", "interjargon", "sleng", "argo" va "fencya" kabi til birliklarini ko'rib chiqadi [1, 34]. Ukrainalik tilshunos Tetiana Harlitska substandartga "shahar tili", deya yondashadi: "Har qanday zamonaviy shahar tili quyidagi komponentlardan iborat ekanligiga amin bo'ldik:

1) ko'plab funksional turlarga ega bo'lgan adabiy til, bunda og'zaki nutq alohida o'rin egallaydi; hududiy dialektlar; 3) og'zaki nutqda ishlatiladigan, lekin hududiy cheklangan xususiyatga ega bo'lmagan turli oraliq/periferik turlar (koyne, og'zaki nutq vokabulyari, interdialekt, surjik, pidjin, kreol); 4) ijtimoiy dialektlar (sleng, professional va korporativ jargonlar, argot). Bunday tasnif shahar nutqining turli kichik tizimlarining xilma-xilligini va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi, sababi, mazkur kichik nutqiy tizimlar zamonaviy sharoitlar ta'sirida o'zlarining lingvistik va ijtimoiy tabiatlarini o'zgartirdi" [4, 292].

Anglashiladiki, har bir tilning og'zaki leksikasi bir qancha funksional uslublar va ijtimoiy qatlamlar uchun xos bo'lgan terminlar bilan boyitiladi. Masalan, sleng, professional jargon, argo, prostorechiye, koyne va pidjin kabi tushunchalar bir qator ijtimoiy guruhlar va madaniyatlar orasida qo'llaniladigan, umume'tirof etilgan substandart leksik birliklardir:



1-chizma. Turli tillarning og'zaki nutq leksikasida sibstandart tarkibi


Har bir tilning leksik tarkibi iste'mol doirasiga ko'ra bir necha qatlamga ajralishi tabiiy holdir. Chunki til egasi muloqot jarayonida ma'nolarning rang-barangligini afzal ko'rib, erkin va jonli so'zlashuvni yoqtiradi. Bu holat nutqning doimo bir xil shaklda emas, balki turli-tuman tashqi ko'rinishlarda ifoda etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zbek tili leksikasida mavjud bo'lgan barcha so'zlar ma'lum bir leksik qatlamni tashkil etadi. Masalan, buni "qatlam" atamasining lug'aviy ma'nosidan ham tushunish mumkinligi sababli ushbu terminning lug'aviy ma'nosiga nazar tashlasak, aslida, atama rus tilshunosligidan o'zbek tiliga tarjima orqali kirib kelgan. "Qatlam" lingvistik termini rus tilidagi "пласт" yoki "слой" so'zlarining o'zbekcha tarjimasi hisoblanadi. "Русча-ўзбекча" lug'atda "пласт" so'zi o'zbek tilida asosan "qatlam", "qavat" ma'nosini ifodalaydi: "tuproq qatlami" "ko'mir qatlami". Shuningdek, "пласт" so'zi "qatlam", "to'da", "gruppa" ma'nolarida ham ishlatiladi: "yangi o'zlashtirma so'zlar qatlami". "Слой" termini ham o'zbek tiliga asosan "qatlam", "qavat", "qat" kabi ma'nolarda tarjima qilingan, shu bilan birgalikda: *слой глины, слой льда, толстой слой краски, верхние слои атмосферы, широкие слои населения* tarzida qo'llanilgan shakllari esa – *loy qatlami, muz qatlami, qalin bo'yoq qatlami, atmosferaning yuqori qatamlari, aholining keng tabaqalari qatlami* kabi qo'llanishlari ham izohlangan [12, 10].

Shu o'rinda, bizningcha, o'zbek tilida leksikani iste'mol doirasiga ko'ra "**qo'llanish doirasi chegaralanmagan**" va "**chegaralangan**" terminlari o'rniga ingliz tilida keng qo'llaniladigan "**standart**" (Standard English) va "**substandart**" (Substandard English) leksikasi tushunchalarini qo'llash ma'qul va aniqroqdir. Bu yondashuv, yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning izlanishlariga asoslanib, o'zbek tili leksikasining qatlamlarini differensatsiya qilish imkonini beradi. Demak, o'zbek tili leksik qatlamlari differensatsiyasi ikki qatlamni o'z ichiga oladi: **1. Standart:** a) adabiy leksika; b)

TILSHUNOSLIK

umumiste'moldagi leksika. **2. Substandart:** a) dialektal leksika; b) neologizm; c) sleng; d) anglisizm e) jargon; f) argo; g) vulgarizm.



2-chizma. O'zbek tilining vokabulyari qatlami differensatsiyasi

XULOSA

Har bir qatlam o'ziga xos funksional va ijtimoiy o'rniga ega bo'lib, tilning faol va sermahsul tabiatini aks ettiradi. Yuqoridagi tasvir o'zbek tili leksikasining turli qatlamlarini tasniflashning murakkabligini va ularning ijtimoiy hamda funksional jihatdan farqlanishlarini ko'rsatadi. Mazkur differensatsiya tilshunoslikda standart va substandart leksika o'rtasidagi ajratuvchi mezonni ifodalaydi.

Standart leksika – tilning yuqori me'yoriy qatlami bo'lib, umumiy qabul qilingan me'yorlarga mos keladigan so'z va iboralardan tashkil topadi. Ushbu qatlam tilning rasmiy, ilmiy va badiiy uslublarida qo'llaniladi. Standart leksika quyidagi xususiyatlarga ega:

Adabiy leksika – eng yuqori darajadagi tildan iborat bo'lib, ilmiy rasmiy va badiiy adabiyotda ishlatiladigan so'zlar va iboralarni o'z ichiga oladi. Mazkur so'zlar tildagi rasmiy hamda me'yorga mos keladigan birliklardir.

Umumiste'moldagi leksika – keng jamoatchilik tomonidan kundalik hayotda qo'llaniladigan umumiy so'z va iboralarni qamrab oladi. Bu so'zlar adabiy leksikadan kamroq rasmiy bo'lsa-da, hali ham standart qatlamdan hisoblanadi.

Substandart leksika – tilning norasmiy, mintaqaviy yoki ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan, rasmiy me'yorlardan chetga chiqadigan hissiy-bo'yoqdor so'z va iboralardan tashkil topgan lisoniy birlikdir. Mazkur leksika ko'pincha yoshlar orasida, zamonaviy texnologiyalar va internet muloqotida, shuningdek, musiqa, kino, adabiyot va boshqa sohalarda jonli, obrazli va emotsional-ifodali bo'lishi uchun ishlatiladi. Substandart leksika og'zaki nutqda individlarning ongi va mulohazasi bilan adabiy so'zlarga putur yetkazmagan holda ularga stilistik polisemiya, sinonimiyaga, antonimiyaga, omonimiyaga va neologizm hodisalariga ko'ra yondashib, muloqotda so'z erkinligi natijasida yaralgan kommunikantlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri mahsulidir. Keltirilgan qatlam quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

Dialektal leksika – ma'lum bir geografik hudud yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan til birliklarini tashkil etadi. Bu so'zlar umumtil me'yorlaridan chetga chiqishi mumkin, ammo muayyan bir mintaqah yoki guruh uchun odatiy hisoblanadi. **Sleng** – norasmiy, ko'pincha yoshlar yoki maxsus guruhlar orasida qo'llaniladigan leksika bo'lib, zamonaviy madaniyat va ijtimoiy tendensiyalar bilan bog'liq. **Jargon** – muayyan kasb-hunar sohasiga xos bo'lgan maxsus til birliklarini qamrab oladi. **Jargon** so'zlari asosan ushbu sohalarga oid texnik yoki mutaxassislik terminlarini qamrab oladi. **Argo** – yashirin yoki maxfiy ma'nolarni ifodalovchi, asosan muayyan yopiq guruhlar tomonidan foydalaniladigan maxsus kodlangan til. Bu so'z va iboralar ko'pincha jinoyatchilar yoki boshqa maxfiy kriptologik guruhlar tomonidan ishlatilib, peyorativ xususiyati bilan ajralib turadi. **Vulgarizm** – odatda qo'pol va sotsial jihatdan nomaqbul bo'lgan so'z va iboralarni bildiradi. Mazkur so'zlar odatda rasmiy va adabiy tilda ishlatilmaydi, sababi, haqoratli, bema'ni hamda qo'pol ma'nolarni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Быков В.Б. Лексикологические и лексикографические проблемы исследования русского субстандарты: дисс. ... док.филол.наук. – Москва, 2001. – 301 с.
2. Гинзбург Р.З., Хидекель С.С., Князева Г.Ю., Санкин А.А. Лексикология английского языка: учебник для студентов институтов и факультетов иностранных языков. – Москва: Высшая школа, 1966. – 274 с.
3. Hannerz U. Language, Variation and Social Relationships // *Studia Linguistica*, 1970. Vol. 24, № 2. – Pp.128-151.
4. Harlytska T. Substandard vocabulary in the system of urban communication // *Theoretical and practical aspects of the development of Modern Science: the experience of countries of Europe and prospects for Ukraine. Philological sciences.* – Riga. Latvia, 2018. – P.290-308.
5. Kenyon J.S. Cultural levels and functional varieties of English // *Readings in Applied English Linguistics.* – New York, 1958. – Pp. 215-220.
6. Коровушкин В.П. Английский лексический субстандарт versus русское лексическое просторечие. Монография. – Череповец: ГОУ ВПО ЧГУ, 2008. – 167 с.
7. Коровушкин В.П. Нестандартная лексика в английском и русском военных подъязыках // *Вестник. ОГУ. Гуманитарные науки.* № 4, 2003. – С. 53-59.
8. Кудинова Т.А. Языковой субстандарт: Социолингвистические, лингвокультурологические и лингвопрагматические аспекты интерпретации: дисс. ... док. филол. наук. – Начальник, 2011. – 344 с.
9. Labov W. *The Social stratification of English in New York City.* – USA: Cambridge University Press. 2nd edition, 2001. – 442 p.
10. Новикова Т.С. Субстандарт XX века и его контрастивно-художественная интерпретация: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 20 с.
11. Partridge E. *The World of Words.* – London: Buttler & Tanner, 1938. – p. 354.
12. Санакулов У., Нуралиев Ф. Лексик систем сифатида сўзларни гуруҳларга ажратиб ўрганишда қўлланилган атамалар талқини // *Хорижий филология. Тил, таълим, адабиёт.* – № 4. – Самарқанд, 2019. – Б. 8-12.
13. Soudek L. *Structure of Substandard Words in British and American English.* – Bratislava: Vydavatelstvo SAV, 1967. – 228 p.
14. Степанов Г.В. Об особенностях языковой вариативности // *Теория языка. Лингвистика. Кельтология.* – Москва, 1979. – С. 125-133.
15. Трифанова С.С. Лексический субстандарт Новозеландского варианта английского языка в синхронии и диахронии: автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 18 с.
16. Ярцева В.Н. *Лингвистический энциклопедический словарь (ЛЭС).* – Москва: Большая российская энциклопедия, 1998. – 685 с.
17. Ярцева В. Н. *Развитие национального литературного английского языка.* – Москва: Наука, 1969. – 310 с.